

## **OMON MUXTOR ROMANLARIDA TARIXIYLIKNING YORITILISHI**

*O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati*

*Guliston davlat universiteti "Adabiyotshunoslik" yo'nalishi tayanch doktoranti*

***Yuldasheva Umida***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Omon Muxtorning iste'dodi, badiiy mahorati yoritilgan. Muallif romanlarida tarixiy faktlarni mohirona qo'llaganligi, tarixiy asosga ega badiiy to'qimalar yaratish mahorati o'r ganilgan. Maqolada Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla", "Ayollar mamlakati va sultanati" romanlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Tarixiy faktlar, muarrix, sof tarixiy voqealar, badiiy to'qimalar, tarixiy atamalar.

### **ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧНОСТИ В РОМАНАХ ОМОН МУХТОРА**

**Абстрактный.** В данной статье рассказывается о таланте и художественных способностях Амона Мухтара. В романах автора изучено умелое использование исторических фактов и мастерство создания художественных фактур с исторической основой. В статье анализируются романы Амона Мухтара «Четыре Тан Кибла», «Страна женщин и королевство».

**Ключевые слова.** Исторические факты, историк, чисто исторические события, художественные фактуры, исторические термины.

### **ILLUMINATION OF HISTORICITY IN OMON MUKHTOR'S NOVELS**

**Abstract.** This article describes the talent and artistic skills of Amon Mukhtar. In the author's novels, the skillful use of historical facts and the skill of creating artistic textures with a historical basis have been studied. The article analyzes Amon Mukhtar's novels "Four-Tang Qibla", "The Country of Women and the Kingdom".

**Keywords.** Historical facts, historian, purely historical events, artistic textures, historical terms.

Omon Muxtor romanlarida tarixiy faktlarga ko‘p murojaat etilgan. Bu bilan muallif kitobxonga ham ma’naviy ozuqa, ham ilmiy bilim – tarixdan saboq bera tarixiylik badiiylik bilan uyg‘unlashib ketgan. O‘quvchi tarixiy voqealarni xuddi badiiy asardek qabul qiladi va hech qanday zerikish his qilmaydi. Aksariyat hollarda bu ma’lumotlar bosh qahramonlarning xayollari sifatida aks etadi. Omon Muxtornig qahramonlari oddiy odamlar emas edi. Buni muallifning o‘zi ham muxbir Ahmad Otaboy bilan bo‘lgan “Har kimning o‘z zamin, o‘z osmoni bor...” nomli suhbatida e’tirof etib o‘tadi: “Mening qahramonlarim, agar e’tibor bergen bo‘lsangiz, Katta odamlar: Abdulla Hakim, Burhon Sharif, “Ko‘zgu”dagi Valijonni oling (unda bir valoyat, valiylik bor-da), lekin u inson sifatida qabihliklarni ko‘rishi kerak-da. Yoki Mirza G‘olib – tarixchi olim, katta davrni o‘rganadi. “FFU”dagi Toshtemir ham ko‘pgina odamlardan baland turadi, garchi yarim umri yovuzlik qilib o‘tgan bo‘lsayam! Dunyoning tub masalasini o‘ylaydi, qayta-qayta: “Men nima uchun yashayapman, maqsadim nima? Bu noma’lum bir nasibami yoki ma’nosи bormi buning?” deya abadiy jumboq ustida bosh qotiradi” [1-423].

Omon Muxtor romanlariga kiritgan tarixiy ma’lumotlarni uchta katta guruhga ajratish mumkin:

- 1. Sof tarixiy voqealar.**
- 2. Muallifning ijodkorligi ishtirokida qayta ishlangan, badiiy to‘qimalar bilan boyitilgan, tarixiy asosga ega voqealar.**
- 3. Tarixiy atamalarining izohi.**

**Sof tarixiy voqealar** “Ayollar mamlakati va sultanati” romanida Amir Nasrullo, Nodirabegim haqidagi tarixiy faktlar bo‘lib, muarixlar tomonidan yozilganligi har bir faktda keltirib o‘tiladi. Bu romanda Amir Nasrullo, Nodirabegim, Muhammad Ali, Kenagasbegim, Amir Umarxon haqida aytib o‘tiladi. Bu tarixiy voqealarni muallif zamonaviy asarlariga shunday joylaydiki, hech bir yerida g‘alizlik sezilmaydi. Ko‘p hollarda ismlarning yoki tashqi qiyofalarning o‘xshashligini bunga asos qilib oladi. “Ayollar mamlakati va sultanati” romanidagi Toji akaning tashqi qiyofasini muallif Amir

Nasrullo o‘xshatadi: “ uning (bosh qahramon Olimning – izoh bizni) nazdida, Toji aka (aft-angori, soxt-sumbati bilan) Amir Nasrulloni eslatayotgan edi.

Faqat bu emas! Quyib-quygan Amir Nasrulloning o‘zginasi edi” [2-127].

“Yozuvchi hayotdagi prototipni o‘zining hissiy tafakkur prizmasidan o‘tkazsa, u real hayotdagi nusxasiga qaraganda mazmunli va ko‘lamliroq shaxs sifatida tasvirlangan bo‘ldi” [3-255], - deya ta’kidlab o‘tadi professor Qozoqboy Yo‘ldoshev. Omon Muxtor ham tarixiy shaxslarni tafakkur prizmasidan o‘tkazib, ijodiy qayta ishlab asarlariga olib kirgan.

“Amir Nasrullo! – Muhammad Rahimhon, Doniyolbiy otaliq, Shohmurod, Haydarlardan keyin, Muzaffar, Ahadxon, Olimxonlardan oldin Buxoro taxtiga o‘tirgan mang‘it amiri...” [as-126]

“Buxoro amiri – Amir Nasrullo Qo‘qonni tor-mor qildi. Devonayi Haqgo‘y bilan Qashqarga qochib ketayotgan Muhammad Alixonni tuttirib kelib, so‘ydirdi” [128].

Olim tarix sahifalaridagi ayrim voqealar qaytarilib turishiga ishonar edi. U Amir Nasrullo va Toji akaning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki taqdirini ham o‘xshatadi. Amir Nasrulloning ko‘plab ayollarni ayovsiz qirg‘in qilganligi tarixdan ma’lum. Shu jumladan, Nodirabegimni ham o‘limga hukum qilgan edi. Toji aka ham bilib-bilmay, yolg‘onga ishonib o‘z qizi Moyrani o‘ldirib qo‘yadi. Muallif tarixni takrorlanib turishi haqidagi fikrni ilgari surib, Toji aka Amir Nasrullo tashqi ko‘rinish, xarakter, hattoki, qismat jihatidan ham o‘xhatilgan. Toji akani Baxtigul ismli ayol otib o‘ldiradi. Bu ikki qismatdosh ayollar tomonidan o‘ldirilgan. “Shuncha fathu nusrat, shuncha dabdaba bilan o‘z yurtiga qaytgan Amir Nasrulloni oz fursat o‘tmay, Kenagasbegim qulog‘iga simob quyib o‘ldiradi!” [4-132]. Buxoro jadidlarining mashhur namoyondalari bo‘lgan Fitrat va Sadriddin Ayniyning yozma ma’lumotlariga qaraganda Amir Nasrullo Shahrisabzni qo‘lga kiritib, uning sobiq hokimi Iskandar Vallamiyning singlisi Kenagasbegimni nikohiga olgan. Kenagasbegim esa akasining o‘chi uchun uxbab yotgan eri Amir Nasrulloning qulog‘iga simob quyadi. Amir Nasrullo Kenagasbegimni Childuxtaron qudug‘iga tashlatadi, oila a’zolarini qirib yuboradi. Ko‘p o‘tmay Amirning o‘zi ham vafot

etadi. Kenagasbegim Amir Nasrulloning qulog‘iga simob quyayotganining tasviri kitobning birinchi muqovasida ham aks etgan. Shuningdek, asarda Stalin haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. “Olimga Toji aka shu asnoda Stalinni eslatgan edi. Stalin xotini (Aliluyeva)ni o‘z joniga qasd qilish holatiga olib borganini – Olim kitoblarda o‘qigan edi” [-90]. Bu asarda muallif Amir Nasrullo va Stalinning umumiylarini Toji aka orqali yaratadi, o‘xshatish-qiyoslashdan foydalanadi. “Tepalikdagagi xaroba romanida” esa Somoni hukmdorlardan Ismoil Somoni, Ahmad ibn Ismoil, Nasr ibn Ahmad (Ikkinchi) hayoti va hukumronligiga batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Muallif bu hukumdorlardan tashqari Xalifa Mu’tamid, Ismoil Somoniyning akasi Nasr ibn Ahmad (Birinchi), Qutayba ibn Muslim nomlari va ularga aloqador ba’zi voqealarni ham keltirgan.

Abul-Hasan Nasrning shajarasini sanab o‘tgan:

“Uning shajarasi...

Bahrom Cho‘bin malik avlodni:

Somonxudot (u barpo etgan bir qishloq Somon deb atalganidan, shunday nom olgan edi!)

Asad ibn Somonxudot

Ahmad ibn Asad Somoni

Ismoil ibn Ahmad Somoni

Ahmad ibn Ismoil Somoni

Nasr ibn Ahmad...

...Nasr ibn Ahmad (Nasr Ikki) otasidan ham, bobosidan ham ko‘proq – o‘ttiz yil sultanat taxtida o‘tirgan edi” [-397]. Muallif tarixiy ma’luotlarni asarga turli shakllarda olib kirgan. Amir Nasrullo haqidagi o‘ylar uzuq-uzuq bo‘lib, olimning real hayoti ham, boshqa xayollari ham aralash keladi. Kitobxon Nasrullo haqidahni ma’lumotlarni o‘zi birlashtitib oladi. Nasr ibn Ahmad haqidagi ma’lumotlar esa tizimli shaklda berilgan. Muallif bosh qahramon Mirza G‘olibning o‘ylarini Nasr ibn Ahmad tomonga yo‘naltiradi va ortiq uni hech narsa bilan chalg‘itmeydi. Faqat Nasr ibn Ahmadning hayoti va faoliyatini haqida gapiriladi va buning o‘ziyoq 10 sahifani tashkil etadi. Asarda “Ismoil Somoni

maqbarasi” aslida Ahmad ibn Asadga bag‘ishlab qurdirliganligi haqida ham ma’lumot keltiriladi. “...Mana shu g‘aroyib maqbarani ham, u ( Ismoil Somoniy – izoh bizniki) burch yuzasidan padari buzrukвори qabri ustiga, xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik sifatida tiklatgan edi! Bu – aslida, Ahmad ibn Asadning maqbarasi edi! Biroq vafot etganidan so‘ng, uni ham shu yerda dafn etishgan; xalqning o‘zi, shunisi to‘g‘iroq bo‘ladi, degan fikrga kelganmi, bu obidaga “Ismoil Somoniy maqbarasi” deb nom bergen edi...” [-403].

Asarda hukumdorlar shaxsiyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, Ismoil Somoniyning adolatli va qudratli hukumdor bo‘lganligi, “To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devoir men bo‘laman” [-401] degan qat’iyatli gaplari alohida ahamiyatga molik. Nasr bn Ahmad ham bobosi kabi bo‘lishga intiladi, ammo tahlika ostida ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi. “...xalqning ahvoldidan shikoyat qiishadi, fitnachilar bilan til biriktirishgan, deb shoirlardan: Panjrudak qishlog‘idan saroyga olib kelingan Abu Abdullof Ja’far – Rudakiyni, ko‘zlarini o‘yib shahardan haydattiradi, Husayn ibn Ali – Marvariddinni o‘lasi holda zindonga tashlatadi.

**Muallifning ijodkorligi ishtirokida qayta ishlangan, badiiy to‘qimalar bilan boyitilgan, tarixiy asosga ega voqealar** ham Omon Muxtor romanlarida yetakchi xarakterga ega. Uning “Ming bir qiyofa” romaida Rahimbek va Rahim Ikki hukumronligi haqida “Afandining bolaligi” hikoyatida aytib o‘tilgan. Ushbu hikoyatda o‘zbek xalq og‘aki ijodi sanalmish latifalarning bosh qahramoni Nasiriddin Afandi obrazi badiiy to‘qima shaklida gavdalantirilgan. Asar faqat to‘qimadan iborat, degan fikga ham kelolmaymiz. Asar voqealari tarixiy Kultepa degan joyda sodir bo‘ladi. Muallif ushbu asarda aynan bitta tarixiy voqeaga tayanmagan bo‘lsa ham, qadimgi davrdagi ba’zi hukumdorlarning umumiyligi tipini yaratiishga intilgan. Rahim Ikkinchini Xiva xonligi tarixida o‘tgan Muhammad Rahimxon II bilan adashtirmaslik lozim. Muhammad Rahimxon II (1845-1910) shoh, shoir va bastakor bo‘lib, Feruz taxallusida she’rlar yozgan. Hukumronligi davrida Xiva xonligida adabiyot va san’atga homiylik qilgan.

Asarda tasvirlangan Rahim Ikkinci esa butkul buning aksi bo‘lib, toj-u taxt uchun aka-ukalarini o‘ldirtiragi. “Rahim ikkinchi, to‘xta, shu bilan qulog‘im tinchiydimi, deb...

Muzofotdagi barcha shoirlarni dorga ostirdi.

So‘ng, barcha xonandayu, sozandalarni so‘ydirdi.

So‘ng, barcha olimlarning terisini shilib, o‘tda yoqdirdi.

So‘ng, barcha hunarmandlarni zindonga tashlatdi” [-135].

Tarixda taxtga adashib kelib qolgan johil hukumdlarning umumiyligi sifatida Omon Muxtor Rahim II obrazini yaratgan. U mamlakatni tich-osoyishtaligidan ko‘ra hukumronligining uzoqroq davom etishini o‘ylaydiganlar xilidan edi.

### **Tarixiy atamalarning izohi.**

Omon Muxtor romanlarida faqat tarixiy shaxslar va voqealarga to‘xtalish bilan cheklanmagan. U tarixiy atamalarning ba’zilariga ham izoh berib o‘tgan. Masalan:

“... ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshiga yopib yuradigan soxta yengli to‘nsimon uzun yopinchiq!” ...“Paranjining ma’nosi ham, aslida, birgina so‘z: “farangiy!” (Faqat, Farangistonda zeb bo‘lgan libos bizda uzlutga chekinish –chekintirish vazifasini o‘tagan.) [as-111]. Yana tarixda “gisu burida” nomli jazo chorasi bo‘lib, faqat ayollarga nisbatan qo‘llanilganligi haqida ham yozgan. Nodirabegim ham Amir Nasrulloning buyrug‘iga binoan ushbu jazoga tortilganligi haqidagi muarixlarning ma’lumotini ham keltirib o‘tgan. “Tarixiy jazolardan xotin-qizlargagina xos bir turi bordirki, buni – “gisu-burida” (bizga forslardan o‘tgan bo‘lsa kerak!) “sochi qirqilgan” deb ataydilar” [4.128]. Muallif oddiy insonlar orasidagi bilimli va zukko insonlarni bosh qahramon sifatida tanlab oladi. Uning qahramonlari tarixdan, adabiyotdan hattoki diniy bilimlardan yaxshigina xabardordir. Ahmad Otaboy aytib o‘tganidek, qahramonlar muallifning fe’l-atvori, dunyoqarashi, kayfiyatini aks ettiradi. Demak, bu bilimlar aslida muallifning bilimlari, dunyoqarashining talqini ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Omon Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.
2. Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va sultanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.
3. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. “Badiiy tahlil asoslari”. T.: Kamalak, 2016.
4. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)